

## Maktablarga tashrif!

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti hamda Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo'llab-quvatlash maqsadida, Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti fakulteti "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida professor-o'qituvchilari dotsent A.Berdishev, katta o'qituvchi A.Turdiboyev, assistent Sh.Yusupov, laboratoriya mudiri R.Raxmatullayevlar Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani 41-maktabning 10-11 sinf o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazishdi. Uchrashuvda kafedradagi mavjud yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar berilib, ko'chma laboratoriya qurilmalarini olib borib dars mashg'ulotlari o'tib berishdi. Bundan tashqari talabalikka qabul qilingan o'quvchilarning imkoniyatlari to'g'risida ham ma'lumotlar berishdi.



Institutning chet davlatlar bilan o'zaro hamkorlik shartnomalari va memorandumlari mavjudligi yaxshi natijalarga erishgan talabalar shu davlatlarda o'qishni davom ettirish, shu bilan birgalikda ikki tomonlama diplomlarga ega bo'lish imkoniyati mavjudligi to'g'risida so'z yuritildi. Shundan keyin o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazilib faol ishtirok etgan o'quvchilar kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.



**Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish kafedrasida dotsenti O'.Xaliqnazarov  
axboroti.  
TIQXMMI matbuot xizmati**